



TILAK JO‘RA IJODIDA TASHBEHLAR

Rasulova Saida Hikmat qizi

SamDU Filologiya fakulteti talabasi

+998883950522

Annotatsiya: Maqolada shoir Tilak Jo‘ra she‘rlarining ifoda uslubi, o‘xshatishlarning o‘ziga xosligi, ta‘sirchanligi haqida so‘z boradi. Shoir she‘rlarini o‘rganishda bir nechta she‘riy to‘plamlarni o‘zida jamlagan “Saylanma”dan foydalanildi.

Annotation: The article talks about the style of expression, originality and impressiveness of the similes of the poet Tilak Jora’s poems. “Saylanma”, which includes several poetry collections, was used to study the poet’s poems.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, to‘lqin, betinim nafas, qo‘nimsiz yurak, qo‘shmag‘iz — yalakatmag‘iz.

Key words: simile, wave, breath, restless heart, double kernel

Adabiyotshunoslikda tashbeh tasvir obyektini yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Yozuvchi va shoirlar ijodida yaratilgan o‘xshatishlar asar mohiyatining ta‘sirchanligini ta‘minlaydi. Adabiyotshunos olim T.Boboyev tashbeh haqida shunday deydi: “Tashbeh — nazmiy va nasriy asar tilida ko‘p qo‘llaniladigan ma‘naviy san‘atlardan biri. Tashbeh hozirgi o‘zbek tilida asosan “o‘xshatish” deb yuritiladi. Tashbeh ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa, xususiyatlarni ular o‘rtasidagi o‘xshashlik, umumiylik nuqtayi nazaridan qiyoslashdir. Haqiqiy shoirlar tashbehdan faqat so‘z o‘yini sifatida emas, balki asar g‘oyasini jozibali ifodalash maqsadida foydalanadilar”¹.

¹ Boboyev, T. (2002). Adabiyotshunoslik asoslari. (370- bet). Toshkent: O‘zbekiston



Shoir Tilak Jo'ra ijodida ham o'xshatishlar she'rlarning ta'sir doirasini kuchaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "Rayhon" to'plamidagi "To'lqin" sonetida shoirning turli o'xshatishlariga duch kelamiz:

*Tilsiz sohillarga urilib nolon,
To'lqinlar bo'zlaydi el qanotida.
To'lqinni ortiga qaytarib shu on,
Sohil ham jilmayar uning ortidan.
Oyning o'rog'ini ming bor parchalab,
U ummon bag'riga soladi suron.
So'ng hissiz qoyaga qo'yar ekan lab,
Orzular yo'lida ko'tarar bo'ron.
Qoyalar ham charxlab qirrali toshin,
To'lqinni qaytarar yana ortiga,
Nurli ko'zlaridan oqizib yoshin,
Keng ummon bag'rida topolmay yo'lin
Asrlarki bo'zlaydi el qanotida
To'lqinlar sohilga cho'zgancha qo'lin.*

Ushbu misralarda tinch turuvchi sohilning "tilsiz"ligi va shovqinli to'lqinlarning "bo'zlash"i orqali o'xshatish bilan birgalikda qarshilantirish ma'nosi yuzaga chiqadi. Aslida, sohil to'lqinni ortiga qaytarmaydi, ammo bu misralarda sohilning to'lqinni ortiga qaytarib yuborishi va uning ortidan jilmayib qolishi go'zal ifodalangan. "Oyning o'rog'ini ming bor parchalab" misrasida oyning o'rog'i birikmasi hilol oyni ifoda etmoqda, oyning suvdagi aksi esa go'yoki parchalangandek. Keyingi misralarda to'lqinlarning qoyalarga urilishi tasviri bo'ron ko'tarilishiga qiyoslanmoqda. Sonetning so'nggi misrasi to'lqinlarning sohilga qo'l cho'zgancha qolishi bilan yakunlanadi. Ushbu sonetdan anglashimiz mumkinki,



to‘lqinlar go‘yoki odamlar va ular jilmayib kuzatuvchi “sohillar” (odamlar) tomon qo‘l cho‘zmoqda. Sonet boshdan oxirigacha turli-tuman o‘xshatishlar va ramziyliklarga boy.

Shoirning “Yulduzlar tabassumi” to‘plamidan o‘rin olgan “U juda shod edi...” she’rida quyidagi o‘xshatishlarga duch kelamiz:

*Bo‘lsa ham besh bolaning otasi,
Uyga keltirmasdi biror paysa go‘sh,
Qo‘llari qishdagi qaldirg‘och uyasi —
Doimo bo‘m-bo‘sh!
Xotin yugurib-yelardi
Nafasday betinim...*

She’r mohiyatida oila mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan ayol timsoli gavdalandiriladi. Notovon otaning har kuni uyiga bo‘sh qo‘l bilan qaytishi qishda qaldirg‘och tashlab ketgan uyaga o‘xshatilmoqda. Inson nafas olishdan to‘xtasa, yashay olmaganidek, ayol yugurib-yelishdan to‘xtasa, oilaning muvozanati buzilishi aniq va ta’sirchan ifodalangan. Keyingi misralarda ayolning o‘rni muhimlashib borayotganligini anglatish uchun ayol “betinim nafas”dan “qo‘nimsiz yurak”ka “aylanadi”:

*Yurakday qo‘nim yo‘q ayol zotida,
Tushlarida ham chopar bozorma-bozor,
Parvonaday yelib orzular qanotida.*

Ayolni turmush urinishlari, kunlik yumushlari tobora yemirib borayotganligini quyidagi o‘xshatishlar va mulohazalar yordamida tadrijiy rivojlanganligini kuzatish mumkin.



*Unga sherik bo'lib hiqillar qozon,
Shu bilan qorayar osmon.
Mana shunday "mayda" tashvishlar
Somonday sarg'aytirdi ayol rangini...*

She'rdagi "qozonning hiqillashi", bir kunning o'tishi ya'ni "osmonning qorayishi" kabi o'xshatishlar bilan yonma-yonlikda xalqona o'xshatishlardan biri bo'lgan "somonday sarg'aymoq" birikmasi ham ifodalangan. "Yulduzlar tabassumi" to'plamidan o'rin olgan yana bir she'rda birgina tashbeh orqali she'rning butun ma'nosi yuzaga chiqadi:

*Ko'm-ko'k maysalarni,
Kulgan yulduzlarni,
Daryoni,
Sahroni,
Sevaman yonib!*

*Maysalar,
Yulduzlar,
Daryolar,
Sahrolar sevar
Sevguvchi yuragimni!
Bizlar — bir vujudmiz,
Yalakatmag'iz...*

Shoir maysalarni, yulduzlarni, daryolarni, sahrolarni, ya'ni o'z vatanini yonib sevishini so'zlamog'da. O'z navbatida ular ham shoirning sevguvchi yuragini



sevadilar. Shoir esa o‘zini vatani bilan bir vujud deb ataydi. Yalakatmag‘izga mengzaydi. “Yalakatmag‘iz – ba‘zan bir danak ichida hosil bo‘ladigan ikkita mag‘iz, egizak mag‘iz, qo‘shmag‘iz”². Demak, shoir o‘zi va Vatanini bir danak (vujud) ichidagi qo‘shmag‘iz deb hisoblaydi.

Ushbu to‘plamdan o‘rin olgan quyidagi she‘riy parchada insonning sog‘inib quchishni tok nartiday chirmashishga o‘xshatadi.

Tok nartiday senga chirmashib,

Quchmoqni sog‘inib o‘larman.

Bu o‘xshatish haqida filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov shunday deydi: “Tilak Jo‘ra she‘rlari xuddi o‘ziday sodda va mazmunli edi... Yurt sog‘inchi, do‘st sog‘inchi, onaizor va go‘zal yor sog‘inchi uning sevgan mavzulari, oy, quyosh, bug‘doy, bedana, tok narti, bedazor – uning xush ko‘rgan tashbihlari edi”[3].

Shoirning “Chorrahadagi uy” to‘plamidan o‘rin olgan “Kuz xayollari” she‘rida shoir kuz faslida vafot etgan otasini eslab “osmonday yig‘lash”ni xohlaydi (yomg‘ir yog‘ishiga ishora). Kuzda yaproqlarning birma-bir to‘kilishi hodisasiga ishora qilib, ko‘hna olamni kuzga qiyoslaydi. She‘rning so‘nggi misrasini ko‘rib, shakl jihatidan birma-bir yerga tushayotgan yaproqlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi va bu bilan insonlarning birma-bir hayotdan ko‘z yumishini tushunamiz.

Osmonday yig‘lamoq istayman men ham,

Kuzakda kuzatgan otamni eslab.

Kuzakka o‘xsharkan bu ko‘hna olam,

Insonni

yaproqday

² Madaliyev A va b. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “Я” (104-bet). Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.



tuproqqa tashlab...

Xulosa qilib aytganda, shoir Tilak Jo‘ra ijodidagi tashbehlar insonni o‘ylashga, tasavvurini kengaytirishga, go‘zallikka oshufta qalb kechinmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev, T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston. 2002. 370- bet.
2. Madaliyev A va b. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 104-bet.
3. Hamroyeva M. Erta so‘ngan yulduzlar. Toshkent: Sharq. 2004. 112-142- betlar.
4. Tilak Jo‘ra. Saylanma. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2011. 288-bet.